



INTERACTIONS BETWEEN CIVIL SOCIETY AND THE STATE

Nilufar Abdurazakova Niyatova

Master's Student, University of World Economy and Diplomacy

Email: niyatovanilufarabdurazakova@gmail.com

Science ID: MJZ-0726-0135

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: civil society, checks and balances, collaborative governance, competition and conflict, globalisation, democracy, intermediate forces, territoriality, monopoly, legitimacy, totalitarian, collaborative governance, social partnership, democracy, demonstration, petition.

Received: 02.08.26

Accepted: 03.08.26

Published: 04.08.26

Abstract: This article analyzes the concepts of civil society and the state, as well as the theoretical and practical aspects of their relationship. Civil society is interpreted as a system of social institutions independent of the state, and its relations with the state are examined in four main forms: cooperation and support, oversight and balance, competition and conflict, and interdependence.

The article elucidates the role of civil society in democracy based on international scientific and theoretical approaches. Furthermore, the principle of “checks and balances” and “governance through partnership” models are analysed. Furthermore, the article also highlights the reforms being implemented to develop civil society in the Republic of Uzbekistan, as well as the strategic documents adopted in this field.

The study demonstrates that the balance of relations between civil society and the state is a key factor determining the democratic development, stability and welfare of the society.

FUQAROLIK JAMIYATI VA DAVLAT O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLAR

Nilufar Abdurazakovna Niyatova

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistratura talabasi

Email: niyatovanilufarabdurazakovna@gmail.com

Ilmiy identifikatsiya raqami: MJZ-0726-0135

Tashkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: fuqarolik jamiyati, nazorat va muvozanat, hamkorlikdagi boshqaruv, raqobat va ziddiyat, globalashuv, demokratiya, oraliq kuchlar, hududiylik, monopoliya, legitimlik, totalitar, hamkorlikdagi boshqaruv, ijtimoiy sheriklik, demokratiya, namoyish, petisiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati va davlat tushunchalari, ular oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqil ijtimoiy institutlar tizimi sifatida talqin etilib, uning davlat bilan munosabatlari toʻrtta asosiy shaklda koʻrib chiqiladi: hamkorlik va qoʻllab-quvvatlash, nazorat va muvozanat, raqobat va ziddiyat hamda oʻzaro bogʻliqlik.

Maqolada xalqaro ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida fuqarolik jamiyatining demokratiyadagi oʻrni ochib beriladi. Shuningdek, “nazorat va muvozanatlash” tamoyili va “hamkorlikdagi boshqaruv” modellari tahlil etiladi. Bundan tashqari, maqolada Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlar hamda bu sohada qabul qilingan strategik hujjatlar ham alohida yoritiladi.

Tadqiqotda fuqarolik jamiyati va davlat oʻrtasidagi munosabatlar muvozanati jamiyatning demokratik rivoji, barqarorligi va fuqarolar farovonligini belgilovchi muhim omil ekanligi koʻrsatiladi.

ВЗАИМООТНОШЕНИЯ МЕЖДУ ГРАЖДАНСКИМ ОБЩЕСТВОМ И ГОСУДАРСТВОМ

Нилуфар Абдуразаковна Ниятова

Магистрант Университета мировой экономики и дипломатии

Email: niyatovanilufarabdurazakova@gmail.com

Научный идентификационный номер: MJZ-0726-0135

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: гражданское общество, система сдержек и противовесов, совместное управление, конкуренция и конфликт, глобализация, демократия, промежуточные силы, территориальность, монополия, легитимность, тоталитаризм, совместное управление, социальное партнерство, демократия, демонстрация, петиция.

Аннотация: В данной статье анализируются понятия «гражданское общество» и «государство», а также теоретические и практические аспекты их взаимоотношений. Гражданское общество трактуется как система социальных институтов, независимых от государства, а его отношения с государством рассматриваются в четырёх основных формах: сотрудничество и поддержка,

контроль и сдерживание, конкуренция и конфликт, а также взаимозависимость.

В статье раскрывается роль гражданского общества в демократии на основе международных научных и теоретических подходов. Кроме того, анализируются принцип «сдержек и противовесов» и модели «управления через партнерство». Кроме того, в статье освещаются реформы, проводимые в целях развития гражданского общества в Республике Узбекистан, а также принятые в этой сфере стратегические документы.

Исследование демонстрирует, что баланс отношений между гражданским обществом и государством является ключевым фактором, определяющим демократическое развитие, стабильность и благосостояние общества.

Kirish. Fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar zamonaviy demokrayik jamiyatning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Bu munosabatlar siyosiy, huquqiy va sotsiologik fanlar uchun asrlar davomida tadqiqot ob'ekti bo'lib kelgan. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrda totalitar rejimlarning qulashi, globallashuv jarayonlari va demokratiyaning yangi to'liqlari fonida ushbu masala yanada dolzarb tusga ega bo'ldi.

Fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqil bo'lgan ijtimoiy institutlar va munosabatlar tizimi bo'lib, u fuqarolarning o'z manfaatlarini himoya qilish, umumiy muammolarni hal etish va davlatni nazorat qilish uchun birlashish shaklidir. Davlat esa suveren hokimiyatga ega, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarini amalga oshiruvchi institutlar tizimidir.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari demokratik huquqiy davlatning ajralmas va muhim tarkibiy qismi sifatida davlat va bozordan tashqarida faoliyat yurituvchi, lekin davlat bilan uzviy bog'liq bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik birlashmalarini o'z ichiga oladi[1].

Fuqarolik jamiyati institutlari demokratik davlatda jamiyatning barqarorligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, davlat hokimiyati organlarini nazorat qilish hamda fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirishda asosiy mexanizm hisoblanadi. Ular davlat

va jamiyat o'rtasidagi ko'prik sifatida ishlaydi, fuqarolarning manfaatlarini ifoda etadi va demokratiyani amalda ta'minlaydi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi fuqarolik jamiyati va davlat tushunchalarini nazariy jihatdan tahlil qilish, ular o'rtasidagi munosabat shakllarini ko'rib chiqish va O'zbekistondagi amaliy holat bilan bog'lashdan iborat.

Fuqarolik jamiyati va davlat tushunchalarining nazariy tahlili. Fuqarolik jamiyati tushunchasi siyosiy falsafada o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, insoniyat va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida unga yondashuvlar ham o'zgarib kelmoqda. Qadimgi davrda bu tushuncha ideal va statik xarakterga ega bo'lgan. Masalan, Platon "Davlat" asarida fuqarolik jamiyatini ideal polis (davlat-shahar) shaklida ko'rib chiqadi. Uning fikricha, davlat insonning o'z-o'zini ta'minlay olmasligidan kelib chiqadi va uch sinfning (faylasuf-hukmdorlar, qo'riqchilar va ishlab chiqaruvchilar) uyg'unligi orqali adolatni ta'minlaydi[2].

Aristotel ham o'zining "Politika" asarida fuqarolik jamiyatini eng oliy va tabiiy jamiyat (polis) sifatida ko'radi: "Har qanday davlat - bu qandaydir jamiyatdir va har qanday jamiyat biror yaxshilikni ko'zlab tashkil etiladi... siyosiy jamiyat (polis) esa barcha jamiyatlarning eng oliysi va barchasini qamrab oluvchisi bo'lib, u eng yuqori yaxshilikni ko'zlaydi"[3].

Bundan ko'rinib turibdiki, antik davr faylasuflari fuqarolik jamiyatini davlatdan ajratmagan, shuningdek, davlatni fuqarolik jamiyatining ichki boshqaruvchi mexanizmi sifatida ta'riflagan.

Yangi davr nazariyasida fuqarolik jamiyati dinamik va mustaqil tus oldi. Jumladan, ingliz faylasufi Jon Lokk (XVII asr) fuqarolik jamiyatini tabiiy holatdan ijtimoiy shartnoma orqali paydo bo'ladigan tuzum deb ta'riflaydi. Fuqarolar o'z tabiiy huquqlarini himoya qilish uchun hukumatga topshiradilar, ammo hukumat faqat fuqarolarning roziligi asosida ishlaydi[4].

Franzus faylasufi va siyosatshunosi Sharl Lui Monteske (XVIII asr) jamiyatni odamlarning tabiiy ehtiyojlari va ijtimoiy munosabatlari asosida shakllanadigan tizim sifatida ko'radi. Davlat esa hokimiyatni tartibga soluvchi siyosiy tuzilma bo'lib, jamiyatning tabiiy rivojlanishiga mos qonunlar yaratishi kerak. U o'zining "Qonunlar ruhi" asarida oraliq kuchlar tushunchasini joriy etib, fuqarolik jamiyatini despotizmdan himoya qiluvchi tuzum deb ataydi[5]. U "oraliq kuchlar" deganda davlat bilan fuqarolar o'rtasida turuvchi, jamiyatni muvozanatda ushlab turadigan ijtimoiy institutlarni - mahalliy jamoalar, gildiyalar (hunarmandlar yoki savdogarlar birlashmasi), diniy tashkilotlar, sudlar va boshqa mustaqil ijtimoiy guruhlarini nazarda tutgan.

XXI asrga kelib, fuqarolik jamiyati tushunchasi yangicha va global xarakterga ega bo'ldi. Zamonaviy amerikalik siyosatchi olimlar Jin L. Koen va Endryu Arato fuqarolik jamiyatini davlat va bozor o'rtasidagi mustaqil uchinchi soha sifatida ta'riflaydilar. U nafaqat oila va yaqin

doiralarni, balki ixtiyoriy birlashmalar, ijtimoiy harakatlar va ommaviy muhokama maydonini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati fuqarolarga davlat boshqaruviga va qonun qabul qilishga bilvosita, lekin kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beradi. Bu ta'sir to'g'ridan-to'g'ri hokimiyatni egallash emas, balki ommaviy muhokama, birlashmalar va ijtimoiy harakatlar orqali amalga oshiriladi[6].

Britaniyalik sotsiolog Simon Susen fuqarolik jamiyatini subyektlararo qurilgan, diskursiv, demokratik va jamoatchilik uchun ochiq ishtirokchi soha deb ta'riflaydi. Uning fikricha, fuqarolik jamiyati nafaqat sivilizatsiyalashtiruvchi, balki demokratlashtiruvchi funksiyani ham bajaradi, ya'ni fuqarolar ishtirok, bahs-munozara va qaror qabul qilish orqali siyosiy tuzilmalarni shakllantiradilar[7].

Davlat tushunchasi ham siyosiy falsafada ko'p asrlik tadqiqot ob'ekti bo'lib, antik davrdan hozirgi kunga qadar u turli ta'riflarga ega bo'lgan. Zamonaviy siyosatshunoslik va sotsiologiyada eng keng tarqalgan ta'rif nemis sotsiologi Maks Veberga tegishli bo'lib, u davlatni "ma'lum hudud doirasida jismoniy kuchdan qonuniy foydalanish monopoliyasini muvaffaqiyatli da'vo qiluvchi inson jamoasi" sifatida ta'riflagan[8].

Veber ta'rifi uch elementni ajratib ko'rsatadi:

- birinchidan, hududiylik - davlatning vakolati ma'lum bir geografik maydon bilan cheklanganligi;
- ikkinchidan, monopoliya - davlat zo'ravonlikni qo'llashning yagona qonuniy subyekti ekanligi;
- uchinchidan, legitimlik - bu eng muhim element bo'lib, kuch bilan boshqarishni davlatga aylantiradigan asosdir. Qonuniy bo'lmagan kuch - bu jinoyat yoki terroridir, davlat emas.

Veber ta'rifi davlatni uning ideologiyasi yoki siyosiy rejimidan qat'iy nazar tahlil etish imkonini beradi, bu liberal-demokratik davlatga ham, totalitar davlatga ham, rivojlanayotgan davlatlarga ham teng darajada qo'llaniladi. Biroq, Veber ta'rifi fuqarolik jamiyati bilan munosabatlarda bir muhim nuqtani ochiq qoldiradi, ya'ni davlat faqat tashqi majburlash manbai emas, balki jamiyat ichida legitimlik ishlab chiqaruvchi mexanizm hamdir. Italiyalik siyosatshunos olim Antonio Gramshi nuqtai nazaridan bu jarayon ideologik gegemoniya orqali amalga oshiriladi, ya'ni hukmron sinf maktablar, ommaviy axborot vositalari va madaniyat muassasalari vositasida mavjud tartibni fuqarolar ongida tabiiy va muqarrar sifatida mustahkamlaydi[9]. Nemis faylasufi va sotsiologi Yurgen Xabermas esa legitimlikni boshqacha tushuntiradi, ya'ni davlat o'z qonuniyligi asosini fuqarolik jamiyatidagi erkin va ratsional jamoatchilik muhokamasidan oladi. Bu muhokama qanchalik erkin bo'lsa, davlat qonuniyligi shunchalik puxta bo'ladi[10].

Fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi munosabat. Xalqaro ilimiy adabiyotlarda fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi munosabatlar keng tahlil qilingan bo'lib, Derick W. Brinkerhoff "Davlat-fuqarolik jamiyati hamkorligini o'rganish: Rivojlanayotgan mamlakatlarda siyosiy sheriklik" nomli maqolasida davlat-fuqarolik jamiyati hamkorligi ko'rib chiqadi, sheriklikning samarali bo'lishi uchun hal qilinishi kerak bo'lgan asosiy omillarga e'tibor qaratadi. Bularga maqsadlar va yaqinlashish darajasini aniqlash, sa'y-harakatlarni birlashtirish va hamkorlikni boshqarish mexanizmlari, tegishli rol va majburiyatlarni aniqlash hamda ushbu rol va majburiyatlarni bajarish qobiliyati kiradi[11].

Bundan ko'rinib turibdiki, hamkorlik va qo'llab-quvvatlash orqali fuqarolik jamiyati davlatga yordam beradi: ijtimoiy xizmatlarni yetkazib berishda ishtirok etadi, davlat siyosatini takomillashtirish uchun takliflar beradi, fuqarolarning faolligini oshiradi. Davlat esa fuqarolik jamiyatiga qonuniy himoya, moliyaviy yordam va faoliyat erkinligini ta'minlaydi.

Nazorat va muvozanatlash demokratiyaning asosiy elementlaridan biri bo'lib, ular hokimiyatning cheklanmagan holda amalga oshirilishiga to'sqinlik qiladi, qarorlar qabul qilish sifatini yaxshilaydi va noqonuniy hatti-harakatlarning oldini olish yoki ularni jazolash mexanizmlari mavjudligini ta'minlaydi. Buyuk Britaniyalik siyosiy olimlar Liza Jeyms, Alan Renvik va Meg Russellning ta'kidlashicha, nazorat va muvozanatlash jamoatchilik ishonchini saqlashda muhim rol o'ynaydi va hukumat ularni qo'llab-quvvatlash uchun alohida mas'uliyatga ega[12].

Fuqarolik jamiyati davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan hokimiyatining suiiste'mol qilinishini oldini oladi. Ommaviy harakatlar, monitoring, hisobot talab qilish orqali "hokimiyatni nazorat qilish" vazifasini bajaradi. Bu demokratiyaning muhim elementi - "nazorat va muvozanat" tizimini amalda ta'minlaydi.

Fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi raqobat va ziddiyat Xitoy fuqarolik jamiyati bo'yicha xalqaro miqyosda nufuzli tadqiqotchilar Reza Hasmath, Timothy Hildebrandt va Jennifer Y.J. Hsu tomonidan tahlil qilinib, ba'zida fuqarolik jamiyati davlat siyosatiga namoyishlar, petisiyalar va sud ishlari orqali qarshi chiqishi, davlat esa xavfsizlik va tartibni saqlash bahonasida fuqarolik tashkilotlarini cheklashi mumkinligi yoritilgan[13]. Bunda avtoritar rejimli davlatlarda fuqarolik jamiyati harakatlari ko'pincha bostiriladi yoki davlat o'zi tomonidan tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotlar (GONGO) orqali ularni nazorati ostiga oladi.

Fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik amerikalik tadqiqotchilar Norman Uphoff, Anirudh Krishna tomonidan ham o'rganilgan bo'lib, fuqarolik jamiyati kuchini o'lchash fuqarolik jamiyatining nima ekanligi nuqtai nazaridan emas, balki nima qilayotgani nuqtai nazaridan ko'rib chiqishdan boshlanishi, fuqarolik jamiyati funktsiyalari fuqarolarning

manfaatlari va talablaridan kelib chiqib, ularning huquqlarini himoya qilish va ehtiyojlarini qondirish turli institutlar va tashkilotlar tomonidan bajarilishi mumkinligi, ularning hammasi ham hukumatdan ajratilmagan yoki ajratilishi shart emasligi to'g'risida xulosa qilingan[14].

Bundan kelib chiqadiki, fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy xususiyatlari hamkorlik va qo'llab-quvvatlash, nazorat va muvozanat, raqobat va ziddiyat hamda o'zaro bog'liqlikdan iborat bo'lib, zamonaviy yondashuvda fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasida "hamkorlikdagi boshqaruv" modeli g'oyasi ilgari suriladi, ya'ni ikkalasi birgalikda jamiyat muammolarini hal qiladi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi munosabatlar. O'zbekistonda so'nggi yillarda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlantirilishi davlat siyosatida ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Jumladan, bugungi kunda O'zbekistonda 9 mingdan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari, 10 mingga yaqin o'zini o'zi boshqarish organlari va 2 mingdan ortiq ommaviy axborot vositalari rasmiy ro'yxatdan o'tib, turli sohalarida davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklikda faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlarining roli va ahamiyatini, ijtimoiy faolligi va faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi" tasdiqlandi. Bu kontsepsiya O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha strategik hujjat bo'lib, u "Yangi O'zbekiston" strategiyasining muhim qismi sifatida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda davlat siyosatining quyidagi ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi:

- Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish;
- Fuqarolik jamiyati institutlariga ko'mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish;
- Davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- Davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish;
- Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash[15].

Bundan tashqari, ushbu kontsepsiyada nodavlat notijorat tashkilotlarining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va uning qo'mitalari majlislarida ishtirok etuvchi doimiy vakili instituti joriy etilishining belgilanishi mamlakatimizda qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki mexanizmlarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "Kasaba

uyushmalari to'g'risida"gi, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi va boshqa qonunlar fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini tartibga soladi[16].

Xususan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish g'oyasi ilgari surilgan bo'lib, bunda ommaviy axborot vositalarining huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, ularning professional faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish hamda ochiqlik siyosatini izchil davom ettirib, fuqarolarning axborot olish, undan foydalanish va tarqatishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishni kafolatli ta'minlash vazifalari belgilangan.

Yurtimizda bunday islohotlarni amalga oshirishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, asosiy qonunimizda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining fuqarolik jamiyati institutlari sifatida davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi, ular o'z faoliyatini qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli ekanligi, hamda davlatning fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi mustahkamlangan[17]. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi yangi tahriri qonunida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi mustaqil faoliyati sifatida belgilangan bo'lib, ularning faoliyatiga davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, davlat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko'maklashadi[18].

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlaridagi fuqarolik jamiyati va davlat tushunchalariga, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga yondashuvlar ham o'zgarib kelmoqda. Qadimgi davrda fuqarolik jamiyati davlatning bir qismi sifatida ko'rilib, uning asosiy vazifasi fuqarolarning davlat ishlarida siyosiy ishtirokini ta'minlash bo'lgan bo'lsa, XVII-XVIII asr nazariyasi fuqarolik jamiyatini davlatdan oldin mavjud bo'lgan tabiiy holat hamda davlatni cheklovchi kuch sifatida ko'rigan. XXI asr nazariyasi esa fuqarolik jamiyatini davlat va bozor o'rtasidagi mustaqil soha hamda davlatni nazorat qiluvchi va hamkorlik qiluvchi kuch sifatida talqin qiladi.

Nazariy jihatdan olib qarasak, soha olimlari ushbu munosabatlarni turlicha talqin qilsalarda, ularning umumiy xulosasi shuki, fuqarolik jamiyatining mavjudligi va faolligi demokratik boshqaruvning asosiy sharti hisoblanadi.

Amaliy jihatdan esa munosabatlar hamkorlik va qo'llab-quvvatlash, nazorat va muvozanat, raqobat va ziddiyat hamda o'zaro bog'liqlik shakllari orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy yondashuvda "hamkorlikdagi boshqaruv" modeli g'oyasi ilgari surilib, bunda fuqarolik jamiyati va davlat birgalikda jamiyat muammolarini hal qiladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, "2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi", "O'zbekiston-2030" strategiyasi, shuningdek, qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini takomillashtirishga qaratilgan bir qator qonunlar majmui davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarni yangi sifat darajasiga ko'tarishga qaratilgan. Shu bilan birga, bu sohadagi institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishda e'tiborni haqiqiy fuqarolik faolligi, vakillik demokratiyasi va mustaqil jamoatchilik nazorati mexanizmlarini mustahkamlash bo'yicha ishlarni davom ettirishga qaratish zarur.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi munosabatlar hamkorlik — nazorat - muvozanat tamoyiliga asoslangan bo'lib, ideal holatda ular bir-birini to'ldiradi. Davlat tartib va xavfsizlikni, fuqarolik jamiyati esa erkinlik, innovatsiya va hisobdorlikni ta'minlaydi. Kuchli fuqarolik jamiyati bo'lmagan davlat zaif yoki avtoritar bo'ladi. Aksincha, haddan tashqari kuchli va tartibga solinmagan fuqarolik jamiyati esa davlatni parchalashi mumkin. Zamonaviy demokratik jamiyatda bu ikki institut bir-birini to'ldiruvchi va bir-birini cheklovchi muvozanat holatida bo'lishi kerak. Bu munosabatlarning sifati jamiyatning demokratik rivoji va fuqarolar farovonligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, 2023. 69-70-moddalar.
2. Plato. The Republic. University O F California, Translated By Tom Griffith, CAMBRIDGE University Press, Book 2, 369 B, P.50.
3. Politics. Aristotle. Translated by Benjamin Jowett. Batoche books Kitchener 1999. P.3.
4. Jon Lokkning "Hukumat to'g'risida ikkinchi risolalar" loyihasining Gutenberg elektron kitobi. LONDON, 2003., 95-bo'lim.
5. Montesquieu. The Spirit of the Laws. Translated by Thomas Nugent, Batoche Books Kitchener 2001, Canada. P.33-34.
6. Джин Л. Коэн, Эндрю Арато «Гражданское общество и политическая теория». Перевод с английского, Москва 2003.с.29-30.

7. Susen S. Civil Society // The Cambridge Handbook of Social Theory. Volume II: Contemporary Theories and Issues / Ed. by P. Kivisto. Cambridge: Cambridge University Press, 2021. P. 382.
8. Weber, M. Politics as a Vocation // From Max Weber: Essays in Sociology / Ed. H.H.Gerth, C.W.Mills. New York: Oxford University Press, 1946. P. 77–128.
9. Gramsci, A. Prison Notebooks / Ed. Q.Hoare, G.N.Smith. New York: International Publishers, 1971. P. 206-209.
10. Habermas, J. The Structural Transformation of the Public Sphere. Cambridge: MIT Press, 1989. P. 27-31.
11. Exploring State-Civil Society Collaboration: Policy Partnerships in Developing Countries. Derick W. Brinkerhoff. 1999. P.59.
12. Constitution-unit.com. 2023.01.19. Checks and balances: What are they and why do they matter.P.3.
13. “Conceptualizing government-organized non-governmental organizations”. Journal of Civil Society, 2019, 15:3, P.267-284.
14. Norman Uphoff, Anirudh Krishna. Civil society and public sector institutions: more than a zero-sum relationship. Journal of Public Administration and Development, 2004. Vol. 24, Issue 1, P. 19-33.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 martdagi “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6181-son Farmoni.
16. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonuni, 1991 y., O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni.,1999 y., O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2003 y., O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni, 1996 y., O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019 y., O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonuni. 2013 y., O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonuni, 2007 y.
17. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, 2023. 127-modda.
18. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 2013 y. 3,4,7-moddalar.